

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASALALAR

1-masala. Eng ko‘p uchragan juft son

Ketma-ketlik berilgan.

Faqat juft sonlar orasidan eng ko‘p uchraganini toping.

Agar juft son yo‘q bo‘lsa - 1.

2-masala. Birinchi noyob element

Ketma-ketlik berilgan.

Faqat 1 marta uchraydigan elementlar ichidan birinchisini toping.

Agar mavjud bo‘lmasa - 1.

3-masala. Minimal qoplama

n ta son berilgan.

Shunday eng kichik uzunlikdagi uzluksiz bo‘lakni topingki,
u bo‘lakda kamida 3 xil son bo‘lsin.

Agar imkonsiz bo‘lsa 0.

4-masala. Ikki to‘plam kesishmasi

Ikki ketma-ketlik berilgan.

Ularning kesishmasini takrorlarsiz, o‘shish tartibida chiqaring.

5-masala. Eng yaqin juftlik

Massiv berilgan.

Ikki element farqi minimal bo‘lgan juftliklar sonini toping.

6-masala. Eng uzun noyob bo‘lak

Ketma-ketlik berilgan.

Takrorlanmagan elementlardan iborat eng uzun uzluksiz bo‘lak uzunligini toping.

7-masala. Ko‘chma maksimumlar

Ketma-ketlik va k ($k \leq n$) berilgan.

Har bir uzunligi k bo‘lgan bo‘lak uchun maksimal elementni chiqaring.

8-masala. Chastota bo‘yicha saralash

Ketma-ketlik berilgan.

Elementlarni uchrash soni kamayish tartibida,

agar teng bo‘lsa qiymati bo‘yicha o‘shish tartibida chiqaring.

9-masala. Birinchi mos keluvchi indeks

Massiv va son X berilgan.

Saralashdan keyin X ga teng bo'lgan elementning eng kichik indeksini toping.

Agar yo'q bo'lsa -1 .

10-masala. Minimal oynacha

Ketma-ketlik va son K berilgan.

Shunday eng kichik uzunlikdagi bo'lakni topingki,

unda kamida K ta turli element bo'lsin.

Agar yo'q bo'lsa 0 .